



## MINTAQAVIY IQTISODIYOT SHAROITIDA PARRANDACHILIK SANOATINING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

**Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich**

<https://orcid.org/0009-0004-3916-208X>

**Annotasiya.** Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi sharoitida parrandachilik sanoatining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari yoritilgan. Parrandachilik sanoatining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozor talabini qondirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati tavsiflangan. Shuningdek, parrandachilik sanoatining eksport salohiyatini kengaytirish orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishiga qo'shayotgan hissasi bayon etilgan. Tadqiqot doirasida parrandachilik sanoatining mintaqaviy iqtisodiyot bilan o'zaro bog'liqligi va uning strategik ahamiyati axborot-ma'lumotlar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** mintaqaviy iqtisodiyot, parrandachilik sanoati, rivojlanish bosqichlari, ishlab chiqarish samaradorligi, investitsion faollik, institutsional omillar.

**Kirish.** Mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Parrandachilik sanoati ushbu kontekstda strategik ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat ichki talabni qondirish, balki eksport salohiyatini kengaytirish orqali mintaqaviy iqtisodiyotining o'sishiga sezilarli hissa qo'shadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator farmonlar va qarorlar qabul qilingan. Jumladan, 2024-yil 27-iyunda imzolangan "Parrandachilik sohasini yanada qo'llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori



(PQ-238) sohada keng ko‘lamli o‘zgarishlarni rag‘batlantirishga xizmat qiladi: barcha mavjud parranda go‘шти eksportiga bo‘yicha cheklovlar bekor qilinadi, 2024–2030 yillarda parranda mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar yuridik shaxslar uchun yer soliqlaridan ozod etiladi hamda “Agro-Poultry Cluster” loyihasini joriy etish orqali kooperatsiya tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, 30-yanvar 2025-yilda qabul qilingan “Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-34-son) bo‘yicha 2025–2028 yillarda chorvachilik va parrandachilik xo‘jaliklari davlat budjetiga to‘langan QQSning 50 %ini qaytarish tartibi joriy etiladi, bu esa kichik va o‘rta korxonalar investitsiyalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar — O‘zbekiston parrandachilik sektorini modernizatsiya qilish, ichki bozorni mustahkamlash va xalqaro bozorlarga chiqishni rag‘batlantirish bo‘yicha kompleks siyosatning ajralmas qismidir. Shu sababli ilmiy tadqiqot doirasida mintaqaviy iqtisodiyot kontekstida parrandachilik sanoatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va rivojlanishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, respublika sanoatini rivojlantirish va salmog‘ini oshirish uchun rivojlangan sanoatda parrandachilik korxonalarini barqarorligiga biri-biri bilan konvergentsiyalash usulini amaliyotga joriy etish zarur. Buning natijasida har tomonlama integratsiyalash, tashqi kapital, bilim, innovatsiyalar va yangi texnologiyalar paydo bo‘ladi. Sanoat sohasidagi resurslar va imkoniyatlarning o‘zaro almashishi takomillashadi. Resurslar ko‘payadi, transport va kommunikatsiya tarmoqlari rivojlanadi, energiya, infrastruktura o‘zgaradi va yangi kasb egalari paydo bo‘ladi. **Parrandachilik sanoatining mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda konvergensiya jarayonlari**

**Birinchidan konvergensiya tushunchasining iqtisodiy mazmuni** iqtisodiy adabiyotlarda **konvergensiya** tushunchasi hududlar, tarmoqlar yoki mamlakatlar o‘rtasidagi **rivojlanish darajalarining yaqinlashuvi**, ya’ni ishlab chiqarish samaradorligi, daromadlar, texnologik rivojlanish va ijtimoiy farovonlik ko‘rsatkichlaridagi tafovutlarning kamayib borishini anglatadi. Mintaqa iqtisodiyoti



kontekstida konvergensiya: hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

**Ikkincha parrandachilik sanoati va konvergensiya o'rtasidagi bog'liqlik**  
Parrandachilik sanoati mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda **konvergent jarayonlarni tezlashtiruvchi tarmoq** sifatida namoyon bo'ladi. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: **Tez aylanuvchi va moslashuvchan tarmoq** parrandachilikda ishlab chiqarish siklining qisqaligi (40–60 kun) kapitalning tez aylanishini ta'minlaydi. Bu kam rivojlangan hududlarda ham ishlab chiqarish samaradorligini tez oshirish imkonini beradi. Natijada, hududlar o'rtasida ishlab chiqarish hajmi va daromadlar bo'yicha **yaqinlashuv (konvergensiya)** yuzaga keladi. **Hududiy bandlik va daromadlarning yaqinlashuvi** parrandachilik kichik va o'rta biznes subyektlari uchun qulay tarmoq hisoblanadi. Qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratilib, aholi daromadlari oshadi. Bu jarayon hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning kamayishiga xizmat qiladi.

**Uchinchidan texnologik konvergensiya va parrandachilik** parrandachilik sanoatida **texnologik konvergensiya** alohida ahamiyatga ega: zamonaviy inkubatsiya texnologiyalari, avtomatlashtirilgan yem berish tizimlari, bioxavfsizlik va raqamli monitoring, energiya va resurs tejovchi usullar hududlar o'rtasida ishlab chiqarish samaradorligining tenglashuviga olib keladi.


Texnologiyalarning tez tarqalishi tufayli ilg'or hududlar bilan nisbatan kam rivojlangan mintaqalar o'rtasidagi **mehnat unumdorligi farqi qisqaradi**.

**To'rtinchidan parrandachilik klasterlari va institutsional konvergensiya** parrandachilik sanoatini **klasterlashuv asosida rivojlantirish** mintaqaviy konvergensiyaning kuchaytiradi: yem yetishtirish, parrandani boqish, qayta ishlash, logistika va savdo yagona qiymat zanjiriga birlashadi. Bu jarayonda: boshqaruv mexanizmlari, moliyalashtirish modellari, davlat qo'llab-quvvatlash institutlari hududlar kesimida **yaqinlashadi (institutsional konvergensiya)**.

Beshinchidan **parrandachilik sanoati va iqtisodiy barqarorlik** Konvergensiya orqali parrandachilik sanoati mintaqa iqtisodiy barqarorligiga quyidagi yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi:

**5.1. Oziq-ovqat xavfsizligi** parranda go’shti va tuxum arzon va barqaror ishlab chiqariladi. Ichki bozor to‘ldiriladi, importga qaramlik kamayadi. Bu iqtisodiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

**5.2. Daromadlar barqarorligi** parrandachilik mahsulotlariga doimiy talab mavjud. Bu tarmoq iqtisodiy inqiroz sharoitida ham nisbatan barqaror bo‘lib qoladi.



## 1-rasm. Parrandachilik sanoatiga asoslangan konvergensiya modeli.

Parrandachilik sanoati mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda konvergent rivojlanishning muhim drayveri hisoblanadi. Ushbu tarmoq hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi, barqaror bandlik va daromad manbaini yaratadi, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi, texnologik va institutsional yaqinlashuvni tezlashtiradi.

Nazariy iqtisodiy yondashuvlarga ko'ra, parrandachilik sanoati qishloq xo'jaligi tizimida tez aylanuvchi, yuqori darajada ixtisoslashgan va bozor mexanizmlariga tez moslashuvchi tarmoq hisoblanadi. Uning nazariy-iqtisodiy mohiyati mintaqa miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, barqaror daromad manbaini shakllantirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirish orqali namoyon



bo'ladi. Qisqa ishlab chiqarish sikli, nisbatan past kapital sig'imi va ishlab chiqarish samaradorligining yuqoriligi parrandachilik sanoatini turli rivojlanish darajasiga ega mintaqalarda tez joriy etiladigan va iqtisodiy natijalari tez namoyon bo'ladigan tarmoqqa aylantiradi. Mazkur xususiyatlar nazariy jihatdan parrandachilik sanoatini mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartiruvchi, ya'ni mintaqaviy konvergensiyaning jadallashtiruvchi muhim omil sifatida asoslaydi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqada parrandachilik sanoatini samarali rivojlantirish uchun ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanganlik va investitsion faollik eng muhim omillar hisoblanadi. Shuningdek, texnologik yangilanishlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tarmoq samaradorligini oshirishda sezilarli rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot asosida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar parrandachilik korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda mintaqaviy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FAYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrda «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-55-son // <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PQ-77-son «Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
3. Basco, R. Family business and regional development - A theoretical model of regional familiness. Journal of Family Business Strategy (2015), <http://dx.doi.org/10.1016/j.jfbs.2015.04>
4. Banalieva E.R., Eddleston K.A., Zellweger T.M. When do family firms have an advantage in transitioning economies? Toward a dynamic institution-based view // Strategic Management Journal. – 2015. –T. 36. -№ 9.
5. O'lmasov A. Oila iqtisodiyoti. Toshkent – "Mexnat"- 1998.;
6. Pardaev M.Q. Oila xo'jaligi iqtisodiyoti va tadbirkorligi. Samarqand 2001 y.;



7. **Norqobilova. F. A.** International scientific and practical conference // Iqtisodiy erkinlik indekisi hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi roli (zenodo.org) \, 2023. – p 255-257